

Mashg'ulotning maqsadi

O'quvchilar telefon qanday ishlashini, uning asosiy qismlari va aloqa jarayoni qanday sodir bo'lishini tushunadi. Shuningdek, telefonning foydali va zararli tomonlari va uni to'g'ri ishlatish qoidalarini o'rganadi.

Mashg'ulot davomiyligi

35-40 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurs 1-sinf Tabiiy fan (science) darsligining 23-mavzusi 32-sahifasidagi "Telefon va planshetlardan foydalanish qoidalarini yodda tuting" deb nomlangan topshiriqlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

Telefon – bu aloqa vositasi bo'lib, u yordamida odamlar bir-birlari bilan uzoq masofadan gaplasha oladi. Telefon ishlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) Biz gapirganimizda ovozimiz mayda tebranishlarga aylanadi va telefon mikrofonni orqali elektr signallariga o'zgartiriladi.
- 2) Bu signallar maxsus to'lqinlar orqali radio antenna yoki sun'iy yo'ldosh orqali boshqa telefonlarga yuboriladi.
- 3) Qabul qiluvchi telefon bu signallarni yana ovozga aylantirib, eshitishimizga imkon beradi.
- 4) Telefon faqat ovozli aloqa uchun emas, balki matnli xabarlar, video qo'ng'iroqlar va internet orqali ma'lumot olish uchun ham ishlatiladi.

STEM fanlar bilan integratsiyasi

- ◆ **Tabiiy fanlar** – Ovoz to'lqinlari qanday harakatlanishi va radio to'lqinlarning ishlashi haqida bilib olish.
- ◆ **Matematika** – Telefon raqamlari, vaqt va aloqa narxlarini hisoblash.
- ◆ **Texnologiya** – Telefon qismlari (mikrofon, dinamik, antenna, sensor ekran) va ularning vazifalari haqida ma'lumot to'plash.
- ◆ **Informatika** – Telefon orqali ma'lumot almashish va internetdan foydalanish.

Qiziqarli fakt

📱 Hozirgi zamonaviy smartfonlar o'z kuchi bo'yicha **1969-yilda** Oyga uchirilgan raketani boshqargan kompyuterdan ming barobar kuchliroq!